

Rossiya Federatsiyasining shaharlaridan qo'shimcha charter reyslari

2020 19 September

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'z Vatanlariga qaytib kelishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi 2020-yil sentyabr oyida Rossiya Federatsiyasi (Moskva, Sankt-Peterburg) shaharlaridan Toshkentga charter qatnovlarga erkin sotuv ochilganini ma'lum qiladi.

Parvozlarni jadvali bilan aviakompaniyaning rasmiy veb-saytida tanishishingiz mumkin.

Yo'nalish	Reys raqami	Qatnov bajariladigan kunlar	Uchish/ketish vaqti	
Moskva - Toshkent	HY 3602	23, 24, 25, 30 sentabr	20:10/01:55+1	Chipta sotib olish
Sankt-Peterburg - Toshkent	HY 3634	25, 28, 30 sentabr	08:15/09:45	Chipta sotib olish

Rossiya Federatsiyasining shaharlaridan O'zbekistonga parvoz qilish faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, PCR tekshiruvdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (qatnov jo'nashidan 72 soatdan ko'p bo'lmaganda) taqdim etilgan holda ruxsat beriladi. PCR ma'lumotnomasi bo'lmagan yo'lovchilar aviakompaniya qatnovlariga qo'yilmaydi.

Aviachiptalarni aviakompaniya veb-saytidan, AJ mobil ilovasi orqali, shuningdek, "Uzbekistan Airways" AJning eng yaqin sotuv ofislaridan yoki mintaqangizdagi aviakompaniya tashuvlarini sotish agentliklaridan sotib olish mumkin.

Sizni aviakompaniyamiz qatnovlarida ko'rishdan mamnun bo'lamiz!

Sizga yoqimli va xavfsiz parvozlarni tilaymiz!